

UDK: 619:636.2:591.111:616-006.446

LEYKOZ INFEKSIYASINI TEJAMKOR USULDA SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI

Bo'taev M.Q.¹ – v.f.n., k.i.x.

Salimov X.S.¹ – v.f.d., prof.

Ruziev Z.E.² – v.f.n.

Salimov I.X.¹ – v.f.d., k.i.x.

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti¹

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti²

Keyingi yillarda qoramollar leykoz kasalligiga qarshi kurash choralari asosan virus tashuvchi hayvonlardan xoli bo'lish yo'llari orqali amalga oshirilmoqda.

Bizning ishtirokimizda Respublikaning 29 ta qoramolchilik fermer xo'jaliklarida o'tkazilgan tekshirish natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, o'tgan davr mobaynida jami immunoferment tahlili (IFT) reaksiyasida serologik tekshirilgan 4475 bosh qoramollarning 252 boshida (5,63%) leykoz infeksiyasi aniqlandi. Faqat 5 ta holatda IFT da gumon natija qayd etildi. Bu yerda shuni alohida ta'qidlab o'tish joizki, ayrim viloyatlardan [Buxoro, Navoiy (Buxoro HDL) viloyatlari, Qoraqalpoqiston Respublikasi va Xorazm viloyati (Urgench HDL)] keltirilgan qon zardoblari namunalarida leykoz infeksiyasi umuman qayd etilmadi. Jami tekshirilgan qoramollar 5 ta zotga tegishli bo'lib, bular golshtin-friz, simmental, aberdin-angus, qizil-ola va shvis zotlari edi. Golshtin friz jami 1925 bosh tekshirilgan, shulardan 128 bosh (6,65%) ijobiy natija ko'rsatgan, simmental zotli 1262 bosh qoramoldan 102 boshida (8,32%) leykoz infeksiyasi, ya'ni seropozitiv natija ko'rsatgan, qolgan zotlarda umuman ijobiy natija qayd etilmagan. Bular jumlasiga aberdin-angus, shvis, qizil-ola zotli qoramollar kiradi.

Yuqorida qayd etilganidek viloyatlar kesimida ham serologik tekshirish natijalari turli xil ekanligi namoyon bo'ldi. Jumladan, eng ko'p bosh qoramollar tekshirilgan Toshkent viloyatida (1157 bosh) eng yuqori virus bilan zararlanish darajasi 195 boshda (16,85%) aniqlandi. Shuning uchun ham leykoz infeksiyasi bo'yicha nosog'lom xo'jaliklar soni Respublika bo'yicha 31 ta xo'jalikni tashkil etgan bo'lsa, uning qariyb yarmi (15 ta qoramolchilik fermer xo'jaligi) Toshkent viloyatiga tegishli ekanligi aniqlandi. Jizzax viloyatida jami tekshirilgan 24 xo'jalikdan 2 tasida, nosog'lom ekanligi aniqlandi. Samarqand viloyatida 13 xo'jalikdan 2 ta, Qashqadaryo viloyatida 17 xo'jaligidan 1 ta, Andijon viloyatida 9 ta fermer xo'jaligidan 1 tasida, Farg'ona viloyatida 51 ta fermer xo'jaligidan 7 tasida, Namangan viloyatida 19 ta fermer xo'jaligidan 3 ta fermer xo'jalik leykoz bo'yicha nosog'lom ekanligi qayd etildi.

Respublikada leykoz infeksiyasi bo'yicha epizotik vaziyat bir muncha mo'tadil bo'lishi bilan birgalikda sog'lomlashtirish tadbirlarini amalga oshirish imkoni yaratilmoqda. Lekin qoramolchilik fermer xo'jaligida go'shtga topshirilishi rejalashtirilayotgan hayvonlar uchun mablag' tannarx hisobida davlat sug'urta tashkiloti tomonidan to'liq to'lanmasligi sababli xo'jaliklarda sog'lomlashtirish

tadbirlari qiyin kechmoqda. Shuning uchun boshqa biroz tejamkor yo'llarini qo'llash lozim bo'lmoqda. Tejamkor usul bo'yicha xo'jalikka zarar yetkazmasdan, sog'lom va shartli sog'lom guruh mollarni leykoz virusi bilan yangi zararlanishidan asrash va umumiy sog'lomlashtirish tadbirlarni mavjud qoidalarga asosan qo'llash talab etiladi. Ushbu usulni qo'llab ko'rish maqsadida Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, "Adiba" f/x tanlandi. Ushbu xo'jalikda tekshirilgan jami 83 bosh qoramollardan, 16 bosh (19,2%) serologik usulda (IFA) ijobiy natija qayd qilingan edi. Ijobiy natija berganlardan 12 bosh Golshtin friz, 4 bosh simmental zotlariga mansub sigirlar bo'lgan.

Ijobiy natija bergan sigirlarni baholash natijalariga ko'ra, 3 bosh (kam mahsuldor, qisir) alohida so'yish maydonchasida so'yildi. Qolgan 13 bosh sigirlar alohida binoda parvarishlandi. Ulardan olingan buzoqlar alohida saqlanib sog'lom bo'lgan mollar suti bilan oziqlantirildi, ijobiy natija bergan sigirlar suti zararsizlantirilib, xo'jalik ehtiyojlariga ishlatildi. Kuzatuv, ijobiy natijalar bergan mollarni mahsuldorligiga qarab, alohida saqlash davom ettirildi va xo'jalik imkoniyatini inobatga olib, eliminatsiya etish tavsiya etildi. Bir yil davomida 13 sigirdan 12 buzoq olindi, ular ham alohida parvarishlandi va oziqlantirildi. Keyin asosiy urg'u ushbu nosog'lom guruhda saqlanayotgan sigirlarni urug'lantirmaslikka kelishildi. Keyingi yilda, ya'ni kuzatuv yakuniga kelib ushbu guruhda saqlanayotgan sigirlarni xo'jalik ehtiyojlari asosida 8 boshi go'shtga topshirildi va fermada 5 bosh alohida saqlanmoqda. Ushbu guruhdagi sigirlardan olingan 12 bosh buzoqlar tug'ilgandan boshlab leykoz infeksiyasi bo'yicha sog'lom sigirlar suti bilan oziqlantirildi va ular 6 oyligida tekshirilganda seronegativ natija qayd qilindi hamda ular sog'lom buzoqlar guruhiga o'tkazildi.

Shunday qilib, bajarilgan tadqiqotlarni umumlashtirib, xotima qiladigan bo'lsak, "Adiba" f/x misolida fermani sog'lomlashtirishda tejamkor usulni qo'llash asosida leykoz infeksiyasiga ijobiy natija bergan 16 bosh qoramollardan, 1 yil 8 oy davomida sut va buzoqlar olinib, kuzatuv yakuniga 5 bosh qolishi, fermani sog'lomlashtirish tadbirlarini xo'jaliklarga zarar yetkazmasdan tashkillashtirish mumkinligidan dalolat bermoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Egamberdievich, R. Z., & Ergashev, N. N. (2022). ECONOMIC IMPACT OF ANTI-LEUKEMIA MEASURES. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 10, 288-291.
2. Рузиев, З. Э. (2024). СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА СЕРОЛОГИЧЕСКИХ И ГЕМАТОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ ДИАГНОСТИКИ ЛЕЙКОЗА. *Ustozlar uchun*, 1(1), 228-231.
3. Рузиев, З. Э. (1993). Эпизоотология лейкоза крупного рогатого скота и меры борьбы с ним в хозяйствах Узбекистана.
4. Рузиев, З. Э., & Исмоилов, А. И. (2022). СИСТЕМА ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ ПРИ ЛЕЙКОЗЕ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI*, 364-369.

5. ЗЭ, Р. (2023). ПРАКТИКА САНАЦИИ ХОЗЯЙСТВ ОТ ВИРУСА ЛЕЙКОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА.
6. ЗЭ, Р. (2023). МЕТОДЫ ОЗДОРОВЛЕНИЯ ХОЗЯЙСТВ ОТ ЛЕЙКОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА.
7. Ruziev, Z. E. (2024, June). IMMUNOFERMENT ANALYSIS AND COMPARATIVE ASSESSMENT OF IMMUNODIFFUSION REACTION IN THE DIAGNOSIS OF LARGE HORNED ANIMAL LEUKOSIS. In *E Conference Zone* (pp. 50-55).
8. Рузиев, З. Э., Курбанов, Ж. Х., & Аллазов, А. С. (2021). ЙИРИК ШОХЛИ ҲАЙВОНЛАР ЛЕЙКОЗИДАН ХЎЖАЛИКЛАРНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШ ТАЖРИБАСИ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(2).
9. Egamberdiyevich, R. Z. (2022). SOME ASPECTS OF THE IMPROVEMENT OF FARMS FROM BOVINE LEUKEMIA. *NeuroQuantology*, 20(12), 1444.
10. Рузиев, З. Э., Исмоилов, А., & Эргашев, Н. Н. (2022). КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКОЕ ПРОЯВЛЕНИЕ ЛЕЙКОЗА У ИНФИЦИРОВАННОГО ВИРУСОМ ЛЕЙКОЗА КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 2(1).
11. Butaev, M. K., & Ruziev, Z. E. (2024). ROUTES AND FACTORS OF TRANSMISSION OF LARGE LEUKEMIA VIRUS CATTLE. *Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods*, 2(4), 42-48.
12. Izbasarov, U. K., Mamadullaev, G. K., Ruziev, Z. E., & Usmonova, K. Z. Modern Requirements for the Treatment of Dermatoses (Psoriasis, Eczema) of Complex Etiology. *Trichophytosis in Humans, Sheep and Goats*.
13. Izbasarov, U. K., Mamadullaev, G. K., Ruziev, Z. E., & Usmonova, K. Z. Modern Requirements for the Treatment of Dermatoses (Psoriasis, Eczema) of Complex Etiology, *Trichophytosis in Humans, Sheep and Goats*.
14. Egamberdiyevich, R. Z., Ikhomovich, K. O., & Salokhovich, A. A. (2021). Sheep Brucellosis Is A Dangerous Disease (Literature Review). *Academicia Globe*, 2(12), 11-13.
15. Газнакулов, Т. К., Орипов, А. О., Сафаров, А. А., Хушназаров, А. Х., Давлатов, Р. Б., & Абдухакимов, Ш. & Мавланов, С. (2023). *ХС Салимов, МК Бутаев, ЗЭ Рузиев, –Биохавфсизлик*.
16. Усмонова, Х., Избасаров, У., Мамадуллаев, Г., & Рузиев, З. (2022). Современные требования к лечению дерматозов (псориаза, экземы) сложной этиологии, трихофитии у человека, овец и коз. *in Library*, 22(2), 684-687.
17. Газнакулов, Т. К., Орипов, А. О., Сафаров, А. А., Хушназаров, А. Х., Давлатов, Р. Б., Абдухакимов, Ш., & Мавланов, С. (2023). *ХС Салимов, МК Бутаев, ЗЭ Рузиев, –Биохавфсизлик*.
18. Давлатов, Р. Б., Насимов, Ш. Н., Ниёзов, Х. Б., Жабборов, Ш. А., Хўджамшукуров, Ш. А., & Сафаров, Х. А. (2019). Парранда касалликларини профилактикаси ва даволаш бўйича ТАВСИЯЛАР. *Тошкент-2019*, 21-26.
19. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Худжамшукуров, А. Н. (2018). Парранда касалликлари" ўқув кўлланма Самарқанд.

20. Давлетов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Тоиров, Ж. Э. (2019). ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТЬ КОЛИБАКТЕРИОЗА ПТИЦ К АНТИБИОТИКАМ. In *СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ, ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В РАЗВИТИИ АПК* (pp. 39-44).

21. Butaeva, I. M., Salimov, H. S., & Davlatov, R. B. (2020). On The Diagnosis Of Mixed Bacterial Infections Of Birds. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(9s), 2308-2315.

22. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Тоиров, Ж. Э. (2018). ВОПРОСЫ ЭПИЗООТОЛОГИИ ЭШЕРИХИОЗА ПТИЦ В УЗБЕКИСТАНЕ. In *Современное состояние, традиции и инновационные технологии в развитии АПК* (pp. 67-73).

23. Ниязов, Ф. А., Давлатов, Р. Б., & Дурдиев, Ш. К. (2007). Особенности ассоциированного течения эймериоза и колибактериоза птиц. In *Болезни птиц в промышленном птицеводстве. Современное состояние проблемы и стратегия борьбы. Матер. научно-произв. конф* (pp. 324-327).

24. Давлатов, Р. Б., Салимов, Х. С., & Хўджамшукуров, А. Н. (2018). Паррандалар касалликлари. *Ўқув қўлланма, Самарқанд-2018, 10*.

25. Salimov, I., Salimova, D., Salimov, H., Xudjamshukurov, A., & Qambarov, A. (2024). Specific prevention of emphysematous carbuncle of cattle and sheep. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01036). EDP Sciences.

26. Газнакулов, Т., Салимов, Х., & Шапулатова, З. (2022). Результаты исследования активности биопрепаратов вакцин, используемых для вакцинации против болезни ньюкасла. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 253-257.

27. Davlatov, R. B., Salimov, X. S., & Xudjamshukurov, A. N. (2018). Parranda kasalliklari, O‘quv qo‘llanma. *Samarqand: “Zarafshon*.

28. Менглиев, А., & Салимов, Х. С. (2004). Мониторинг распространения и предотвращение особо опасных болезней животных: сб. материалов конф. *Самарканд, 26-27. 09, (2004), 107*.

29. Tairov, J., & Salimov, K. (2023). Cultural, biochemical, and pathogenic properties of Escherichia coli isolated from birds. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 01023). EDP Sciences.

30. Бутаева, И., & Салимов, Х. (2022). Диагностика смешанных бактериальных инфекций птиц. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 58-62.

31. Бутаев, М. К., Незаметдинова, К. А., & Салимов, Х. О. (1991). Сравнительное изучение показателей естественной резистентности здоровых и инфицированных вирусом лейкоза коров. *Вестник сельскохозяйственной науки*, 5, 83.

32. Салимов, Х. С., & Бутаев, М. К. (1990). Пути передачи вируса лейкоза крупного рогатого скота. In *Докл. ВАСХНИЛ* (No. 5, p. 20).